

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI**



**BUXORO OZIQ-OVQAT VA ENGIL SANOATI  
TEXNOLOGIYASI INSTITUTI**

**"Marketing" kafedrası**

:

**kat. o`qit. Namazova N. J, kat. o`qit. Rustamov N.I.**

**Mikroiqtisod fanidan amaliy mashg`ulotlar o`tish  
bo`yicha uslubiy qo`llanma**

**BUXORO-2008**

"Marketing" kafedrası yig`ilishida ko`rib chiqildi.

Bayon № \_\_ \_\_\_\_\_ 2008 y.

Institut uslubiy kengashida ko`rib chiqildi.

Bayon № \_\_ \_\_\_\_\_ 2008 y.

Taqrizchilar:

Buxoro iqtisodiyot  
va bank kolleji direktori  
Dots. Nizomov A.B.

"Menejment" kafedrası dots.Ulashev X.A.

Ushbu uslubiy qo`llanmada "Mikroiqtisod" fani muammolari bilan bog`liq bir qator amaliy masalalarning mohiyati ochib berilgan bo`lib, unda iqtisodni tashkil etish muammolari, bozor iqtisodiyoti subektlari, iqtisodiy resurslarning shakllanishi va ulardan foydalanish, talab va taklif nazariyasi kabi qator muammolar bo`yicha amaliy masalarni echishga keng o`rin berilgan.

Uslubiy qo`llanma menejment, iqtisodiyot va marketing yo`nalishlari bo`yicha ta`lim olayotgan Oliy o`quv yurtlarining talabalariga mo`ljallangan.

## MUNDARIJA

Kirish.....	4
1 -Mavzu.Iqtisodni tashkil qilishning asosiy muammolari.....	5
2-Mavzu.Bozor iqtisodiyotning subyektlari.....	9
3-Mavzu.Talab va taklif nazariyasining elementar asoslari.....	12
4-Mavzu.Talab va taklif o'zgaruvchanligi.....	16
5-Mavzu. Alohida mahsulot bozorida talabning shakllanishi.....	20
6-Mavzu. Firma va uning bozor iqtisodidagi roli.....	24
7-Mavzu. Turli bozor strukturalarida ishlab chiqarish va narx shakllanishi .....	28
8-Mavzu. Iqtisodiy resurslar va ularning harakati.....	32
Foydalanilgan adabiyotlar.....	37

## **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan bir vaqtda yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda talabalarga "Mikroiqtisod" fanini o'qitish davr talabiga aylanib bormoqda. Ushbu fan iqtisodiyot nazariyasining bir yo'nalishlaridan bo'lib, xo'jalik yuritishning nazariya va amaliyotga doir savollarini, bozor tizimiga amal qilish asoslarini, bozor iqtisodi subektlarini, talab va taklif o'zgarishlariga ta'sir etuvchi omillarni, alohida mahsulot bozorida talabning shakllanishini, turli bozor strukturalarida ishlab chiqarish, narx shakllanishi va xarajatlarni, firma va uning bozor iqtisodidagi rolini, iqtisodiy resurslar, ularning harakati va ulardan samarali foydalanishni, resurslarni optimal taqsimlash yo'llarini o'rgatadi.

Fanni o'qitishdan maqsad bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, talabalarning jamiyatimiz iqtisodiy taraqqiyoti yo'lida murakkab sharoitlarga moslashish uquvini hamda mikroiqtisodiy muammolarni hal etish yo'llarini izlab topishga o'rgatishdir. Ushbu qo'llanma amaliy mashg'ulotlar mazmuni va diagnostik testlarni o'z ichiga olgan. Fan iqtisodiyot nazariyasi, matematika, iqtisodiy tahlil, moliya, statistika fanlari bilan uzviy ravishda bog'liq. Qo'llanma iqtisodiyot nazariyasi asoslariga tayanadi, lekin hech qachon bu fanning mazmunini takrorlamaydi. Qo'llanmadagi mavzular mazmunan ketma-ketlikda bayon etilgan. Ushbu qo'llanmadan foydalanayotgan talabalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydilar balki real hayotda bu boradagi bilimlarini amalda qo'llay bilish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.


# 1 - MAVZU. IQTISODNI TASHKIL QILISHNING ASOSIY MUAMMOLARI.

## Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.


**1-mashg'ulot.** Qishloq xo'jaligi korxonasida 5 kishi ishlaydi. Ularning har biri bir kunda mashina yordamida yo 10 tonna paxta, yo 20 tonna bug'doy tyerib olishi mumkin.

- 1.1 rasmda bu korxonaning iqtisodiy ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ini chizing.
- faraz qilamizki, ferma unumdorligi yuqori bo'lgan texnika sotib oldi. Natijada har bir ishlovchi kuniga 28 tonna bug'doy o'rishi mumkin. Grafikda ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i qanday o'zgarishini ko'rsating.

**2-mashg'ulot.** 1.2 rasmda iqtisodning ishlab chiqarish imkoniyatlarini aks ettiradi. U ikki tovarni o'z ichiga oladi: kinokameralar va qo'l soatlari.



1.1-rasm.



1.2-rasm.


a) quyidagi ishlab chiqarish kombinatsiyalari uchun grafikda nuqtalarni toping hamda samarali, samarasiz va mumkin bo'lmagan ishlab chiqarish variantlarini aniqlang:

- 60 kinokamyera va 200 soat.
- 60 soat va 80 kinokamyera.
- 300 soat va 35 kinokamyera.
- 300 soat va 40 kinokamyera.
- 58 soat va 250 kinokamyera.


b) faraz qilamizki, jamiyatda 300 soat va 40 kinokamyera ishlab chiqariladi, lekin kinokamyeralarga talab 20 birlikka oshdi. Bu talabni qondirish uchun qancha birlik soat ishlab chiqarishdan voz kechish kerak.

c) Agar yana 20 birlik kinokamyera ishlab chiqarishdan zarur bo'lsa, soat ishlab chiqarish necha birlikka kamayadi.

**3-mashg'ulot.** 1.3 rasmda ma'lum iqtisod uchun ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i ko'rsatilgan. Agar iqtisod retsessiyaga uchragan bo'lsa, ko'rsatilgan to'rt nuqtadan qaysi biri bu holatga mos bo'ladi?



1.3 rasm




Tovarlar  
1.4 rasm

**4-mashg'ulot.** 1.4 rasmda ijtimoiy ne'matlar, sotsial xizmatlar va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'rtasidagi jamoa tanlovi aks ettirilgan. A,B,C nuqtalari davlatning iqtisodni rivojlantirishga qatnashishning turli darajalarini xarakterlaydi. Har bir nuqta uchun uning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ida joylashuviga mos keladigan holatni tanlang:


- davlatning iqtisodga minimal aralashuvi.
- hukumat ijtimoiy ne'matlarning asosiy qismini davlat sektorida ishlab chiqarishni ta'minlaydi.
- hukumat ijtimoiy ne'matlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanib, o'z navbatida xususiy sektorning faoliyat ko'rsatishini ham ta'minlaydi.

**5-mashg'ulot.** 1.5 va 1.6 rasmlarda ifodalangan holatlarni ta'riflovchi tasdiqlar to'g'ri (T) yoki noto'g'ri (N)?

- "d" nuqtadan "b" nuqtaga o'tish A mamlakat iqtisodida al'tyernativ xarajatlar o'zgarishi natijasida zararlar paydo bo'lishini bildirmaydi.
- mamlakatda mashinalar ishlab chiqarishni kengaytirgan sayin, non mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari o'sadi.
- A mamlakatda non mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish faqat al'tyernativ xarajatlarning o'sish sharoitidagina mumkin.



Non mahsulotlari  
A mamlakatning  
ICHICH.. 1.5 rasm.



Non mahsulotlari  
V mamlakatning  
ICHICH . 1.6 rasm.

## Diagnostik tekshirish uchun testlar.

1. Quyidagilardan nimani mikroiqtisodiyot o'rganadi?
  - a) butun iqtisod ko'lamidagi ishlab chiqarishni.
  - b) xo'jalikda band bo'lgan ishlovchilar sonini.
  - c) narxlarning umumiy darajasini.
  - d) shakar ishlab chiqarish va uning narxini o'zgarishini.
  
2. Agar iqtisod butun tizim sifatida tadqiq etilsa, unda bunday tahlil:
  - a) mikroiqtisodiy.
  - b) makroiqtisodiy.
  - c) pozitiv.
  - d) normativ.
  
3. Agar jamiyat xarajatlarni kamaytirib, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan olinadigan daromadni ko'paytirishga harakat qilsa, unda uning iqtisodiy maqsadi:
  - a) to'la bandlikka erishish.
  - b) iqtisodiy o'sishni ta'minlash.
  - c) iqtisodiy xavfsizlik.
  - d) iqtisodiy samaradorlik.
  
4. Iqtisodiy tizimdagi narxlar umumiy darajasi va ishsizlik muammolarini quyidagi fan o'rganadi:
  - a) mikroiqtisodiyot.
  - b) makroiqtisodiyot.
  - c) menejment.
  - d) xalqaro moliya.
  
5. «Nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish» muammolari quyidagilarga taaluqli bo'lishi mumkin:
  - a) faqat totalitar tizimda yoki markazlashgan planlashtirish hukmron bo'lgan jamiyatlarda.
  - b) faqat bozor iqtisodiyotida.
  - c) faqat qoloq iqtisodda.
  - d) siyosiy va sotsial-iqtisodiy tashkil qilinish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday jamiyatda.

6. «Nima ishlab chiqarish» muammosi:
- a) jamiyat oldida emas, balki faqat xususiy tadbirkorlar oldida turishi mumkin.
  - b) ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'ida nuqtalarni tanlash muammosi sifatida ko'rilishi mumkin.
  - c) ishlab chiqarish omillari unumdorligining kamayishi qonunining harakati asosida o'rganiladi.
  - d) faqat resurslarning o'ta etishmovchiligi sharoitida paydo bo'ladi.
7. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i nimani ko'rsatadi?
- a) xo'jalik ishlab chiqarmoqchi bo'lgan ikki mahsulotning aniq miqdorlari.
  - b) ikki mahsulot ishlab chiqarishning imkoni bor kombinatsiyalaridan eng yaxshisi.
  - c) resurslarning ma'lum miqdorida mahsulotlar ishlab chiqarishning al'tyernativ kombinatsiyalarini.
  - d) ishlab chiqarish omillarining kamayish qonuni amal qiladigan vaqtni.
8. Iqtisod samaradorli, agar unda:
- a) to'la bandlikka erishilganda.
  - b) ishlab chiqarish resurslaridan to'la foydalanilganda.
  - c) yo to'la bandlik, yo resurslardan to'la foydalanilganda.
  - d) ham to'la bandlik, ham ishlab chiqarish resurslaridan to'la foydalanilganda.
9. Agar jamiyatda ishlab chiqarish resurslari oshsa, unda:
- a) mahsulot va xizmatlar ko'proq ishlab chiqariladi.
  - b) iqtisod ko'proq mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishga qobil.
  - c) ishlab chiqarish texnologiyasi o'zgargan.
  - d) yashash darajasi oshadi.
10. Yangi qurilgan stadionning muqobil xarajatlari, bu:
- a) uning qorovullariga va boshqa xizmatchilarga haq to'lash.
  - b) kelasi yilda stadionning qurish bahosi.
  - c) stadion daromadidan to'lanadigan soliq stavkasining o'zgarishi.
  - d) boshqa mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishdan ayirib shu stadionni qurish uchun ajratilgan xarajatlar bahosi.

## 2-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTINING SUBYEKTLARI.

### Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

**1-mashg'ulot.** Agar mulkdorning monopolistik holati o'nga tovar ishlab chiqarishni qisqartirish, yuqori narxlarni saqlash va ustama foyda olishga imkon bersa, bu jamiyat tanlovini o'zgartirish mumkinmi? Nima uchun?

- "Nima ishlab chiqarish" savoliga javob o'zgaradimi?
- "Qanday ishlab chiqarish" savoliga javob o'zgaradimi?
- "Kim uchun ishlab chiqarish" savoliga javob o'zgaradimi?

**2-mashg'ulot.** Uch investitsion loyiha mavjud:

- Xarajatlar 150 ming so'm. Kutiladigan yillik foyda 1 ming so'm.
- Xarajatlar 150 ming so'm. Kutiladigan yillik foyda 15 ming so'm.
- Xarajatlar 1000 ming so'm. Kutiladigan yillik foyda 75 ming so'm.

2.1.jadval


	Protsent stavkalari			
	5%	7%	9%	11%
A.				
B.				
C.				

- Har bir loyiha uchun (A,B,C) foyda normasini hisoblang.
- Agar kreditga olingan kapital protsenti darajasi 5%, 7%, 9% va 11% ga teng bo'lsa, unda bu protsents stavkalarining qaysi birida A, B, C loyihalarini amalga oshirish tadbirkor uchun qulay (q) yoki noqulay (N).

**3-mashg'ulot.** Diagrammada mahsulot bozori, resurslar bozori va to'rt oqim ko'rsatilgan.

Har bir oqimning mazmunini oching:

- \_\_\_\_\_
- \_\_\_\_\_
- \_\_\_\_\_
- \_\_\_\_\_



**4-mashg'ulot.** Qaysi fundamental savollarni ("nima, qanday, kim uchun ishlab chiqarish?") echishda davlat siyosati ta'sir ko'rsatadi:

- a) ish haqining eng kam miqdori to'g'risidagi qonunni kiriting.
- b) soliqlardan ozod bo'lgan yangi temir yo'l qurilishi.
- c) shaxar aholisining boy tabaqalari sotib olish qobiliyatini tushirish uchun progressiv soliq solishni kiriting.

### **Diagnostik tekshirish uchun testlar.**

1. Quyidagi holatlardan qaysi biri tarmoqda raqobat yo'qligidan dalolat byeradi?
  - a) foyda darajasining iqtisoddagi normal darajasidan pastligi.
  - b) tarmoq korxonalarining ishlab chiqarishni kengaytirishga qodir emasligi.
  - c) bu tarmoqqa boshqa firmalarning «kirish» imkoniyati yo'qligi.
  - d) o'rtacha mamlakatdagiga nisbatan ish haqi darajasining pastligi.
  
2. Narx mexanizmiga asoslangan bozor iqtisodining bir rad etib bo'lmaydigan afzalligi:
  - a) bozorning hamma qatnashchilariga shaxsiy erkinlik byerishda.
  - b) resurslarning samarali taqsimlanishida.
  - c) daromadning barobar taqsimlanishida.
  - d) iqtisodning bir me'yorda rivojlanishida.
  
3. «Nomukammal raqobatchi» atamasi bozor iqtisodida quyidagicha amal qiladigan sotuvchiga taalluqli:
  - a) narx va ixtisoslashish tizimidan tashqarida harakat qiladigan.
  - b) narxga ta'sir ko'rsatish uchun etarli hajmda mahsulot taklif etadigan.
  - c) iste'molchilar moyilligi standartini buzishga harakat qiladigan.
  - d) ongli yoki ongsiz ravishda samarasiz ishlab chiqarish uslublarini qo'llaydigan.
  
4. Yer, mehnat, kapital — ishlab chiqarish omillari. Kapitalga quyidagilar kirishi mumkin:
  - a) pul, aktsiyalar, obligatsiyalar.
  - b) faqat aktsiya va obligatsiyalar.
  - c) faqat pul va aktsiyalar.
  - d) pul ham, aktsiya ham, obligatsiya ham kapitalga kirmaydi.
  
5. Bozor iqtisodida davlat qanday muammolar bilan shug'ullanishi kerak?
  - a) jamiyatda pul daromadlarini taqsimlash.
  - b) cheklangan daromadga ega bo'lgan biron-bir iste'molchiga yordam ko'rsatish va undan unumli foydalanish uslublarini belgilash.
  - c) bor bo'lgan resurslardan nima va qancha ishlab chiqarishni aniqlash.
  - d) jamiyatga zarur bo'lgan mahsulot va xizmatlar doirasini aniqlash.

6. Quyida ko'rsatilgan ta'riflardan qaysi biri bozor iqtisodiyotiga taalluqli emas?
- raqobat.
  - markazlashgan planlashtirish.
  - xususiy mulk.
  - tadbikorlik tanlovida erkinlik.
7. Foydani maksimallashtirish kimning manfaatiga ko'proq mos?
- xususiy firmaga.
  - yer mulkdoriga.
  - ishchilarga.
  - iste'molchilarga.
8. Aralash iqtisodda davlatning roli:
- umuman yo'q.
  - cheklangan.
  - ancha sezilarli.
  - xo'jalikning ko'p sektorlarida ko'zga tashlanadi.
9. Aylanma harakat modelida qaysi ikki bozor kiritilgan?
- real va pul.
  - pul va mahsulot va xizmatlar bozori.
  - pul va resurslar bozori.
  - mahsulot va xizmatlar va resurslar bozori.
10. Quyidagilardan qaysi biri «raqobatli bozor» tushunchasiga qarama-qarshi:
- iqtisodiy boshqarishning tarqoqligi.
  - sotuvchilar sonining ko'pligi.
  - hamma tovarlarga talab namoyon etuvchi xaridorlarning kamligi.
  - bu bozorga ishlab chiqaruvchilarning nisbatan osonlikcha kirishi.

### 3-MAVZU. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASINING ELEMENTAR ASOSLARI.

#### Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

**1-mashg'ulot.** 3.1 Jadvalda o'rik konsyervasi bozorida turli holatlarni ifodalovchi ma'lumotlar keltirilgan:

3.1 Jadval

Narxi (so'm)	Talab xajmi (yiliga mln.bank)	Taklif xajmi (yiliga mln.bank)
8	70	10
16	60	30
24	50	50
32	40	70
40	30	90

3.1 Jadval ma'lumotlari yordamida talab va taklif egri chiziqlarini chizing.

- a) agar bir banka o'rikning narxi 8 so'mga teng bo'lsa, unda bu bozor uchun nima harakterli – ortiqchalikmi yoki kamchilik?
- b) agar bir banka o'rik narxi 32 so'm bo'lsa, bu bozor uchun nima harakterli – ortiqchalikmi yoki kamchilik?
- c) bu bozorda muvozanat narx nimaga teng?
- d) iste'mol xarajatlarining o'sishi o'rik konsyervasi iste'molini har bir narx darajasida 15 mln. bankaga oshirdi. Muvozanat narx va muvozanat ishlab chiqarish xajmi nimaga teng bo'ladi?

**2-mashg'ulot.** 3.2 Jadvaldagi o'zgarishlar talab va taklifga qanday ta'sir ko'rsatadi?

3.2 jadval

O'zgarishlar (boshqa omillar ta'sir etmaganda)	Talab egri chizig'i siljishi	Talab egri chizig'i bo'ylab harakati	Taklif egri chizig'i siljishi	Taklif egri chizig'i bo'ylab harakat
1. Raqobatdosh tovarlar narxi o'zgarishi	_____	_____	_____	_____
2. Yangi texnologiya joriy etilishi	_____	_____	_____	_____
3. Tovarga modaning o'zgarishi	_____	_____	_____	_____
4. Iste'molchilar daromadining o'zgarishi	_____	_____	_____	_____
5. Xom-ashyo narxining o'zgarishi	_____	_____	_____	_____

Talab va taklif egri chiziqlari yordamida ularning ta'sirini baholang (o'zgarish samarasini ta'riflovchi ustunlarga, «\*» belgisini ko'ying).


**3-mashg'ulot.** 3.3 Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar yordamida quyidagi topshiriqlarni bajaring:

- X, U, Z iste'molchilarning talab egri chiziqlarini chizing.
- bozor talabi egri chizig'ini chizing. Uni qanday tuzganligingizni tushuntirib byering.
- X va U iste'molchi tomonidan tovarga talab ikki marta ortdi, Lekin Z iste'molchining talabi yarmiga kamaydi, deb faraz qilamiz. Shunga mos holda X, U va Z iste'molchilar talabi egri chizig'i va bozor talabi egri chizig'i qanday o'zgaradi.

3.3 Jadval

Narx (so'm)	X iste'molchi talabi (birlik)	U iste'molchi talabi (birlik)	Z iste'molchi talabi (birlik)
10	0	0	0
9	0	3	1
8	0	5	5
7	1	7	8
6	2	9	11
5	4	12	12
4	6	15	15
3	10	18	18
2	15	21	20
1	21	24	23
0	25	25	25

**4-mashg'ulot.** 3.4. Rasmda  $D_0$ ,  $D_1$ ,  $D_2$  talab egri chiziqlari ko'rsatilgan. quyidagi savollarga javob byering:




3.4 Rasm.

- $D_0$  egri chizig'idagi (a) nuqtadan  $D_1$  egri chizig'idagi (b) nuqtaga ko'chish nimaga bog'liq? Nima uchun? Bu siljishning sababi nima?

- b)  $D_0$  egri chizig'idagi (a) nuqtadan  $D_2$  egri chizig'idagi (s) nuqtaga ko'chish nimaga bog'liq? Nima uchun? Bu siljishning sababi nima bo'lish mumkin?
- c)  $D_0$  egri chizig'idagi (a) nuqtadan (d) nuqtaga ko'chish nima bilan bog'liq? Nima uchun? Bu ko'chishning sababi nima bo'lish mumkin?

**5 mashg'ulot.** 3.5. Rasmda  $S_0$ ,  $S_1$ ,  $S_2$  taklif egri chiziqlari aks ettirilgan. quyidagi savollarga javob byering:

- a) (a) nuqtadan (b) nuqtaga harakat nima bilan bog'liq? Nima uchun? Buning sababi nima bo'lish mumkin?
- b) (a) nuqtadan (s) nuqtaga ko'chish nima bilan bog'liq? Nima uchun? Buning sababi nima?
- c) (c) nuqtadan (s) nuqtaga harakat qilish nima bilan bog'liq? Nima uchun? Bu harakatning sababi nima bo'lishi mumkin?



3.5 rasm. Taklif egri chiziqlari.

### Diagnostik tekshirish uchun testlar.

- Talab qonuni nimani ko'rsatadi?
  - taklif talabdan oshsa, narxlar pasayishini.
  - agar iste'molchilar daromadi oshsa, ularning ko'p mahsulot sotib olishini.
  - talab egri chizig'ining musbat qiyalanishga ega ekanligini.
  - qachon tovar narxi tushsa, rejalashtirilgan xaridlarning oshishini.
- X tovarga bo'lgan talab egri chizig'i siljishini nima bilan tushuntirish mumkin?
  - X tovar taklifi barcha sababga ko'ra kamaydi.
  - X tovar narxi oshdi va natijada iste'molchilar bu mahsulotni kam sotib olishga qaror qilishdi.
  - iste'molchilar didi X tovarga bo'lgan qiziqishni uyg'otdi va ular har qanday narxda uni avvalgidan ko'proq sotib olishga qaror qilishdi.

- d) X tovar narxi tushdi, shuning uchun iste'molchilar uni avvalgiga nisbatan ko'proq sotib oladilar.
3. X tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslarga narx oshishi nimaga olib keladi?
- a) talab egri chizig'i o'nga siljiydi.
  - b) taklif egri chizig'i chapga siljiydi.
  - c) taklif va talab egri chiziqlari yuqoriga siljiydi.
  - d) taklif egri chizig'i o'ngga siljiydi.
4. Qaysi tyermin odamlarning biron narsani sotib olishga qobilligini va xohishini ko'rsatadi?
- a) ehtiyoj.
  - b) talab.
  - c) zaruriyat.
  - d) xohish.
5. Bozor talabi nimaga bog'liq emas?
- a) iste'molchilar daromadi.
  - b) o'zaro o'rnini bosuvchi tovarlar narxi.
  - c) resurslar narxi.
  - d) iste'molchilar soni.
6. Agar talab tushsa, egri chiziq qaysi yo'nalishda siljiydi?
- a) pastga va chapga.
  - b) soat strelkasi bo'ylab.
  - c) yuoriga va o'ngga.
  - d) soat strelkasiga teskari.
7. Qaysi omil o'zgarishi talab egri chizig'ining siljishiga olib kelmaydi?
- a) iste'molchilar didi.
  - b) milliy daromad miqdori.
  - c) tovar narxi.
  - d) iste'molchilar soni.
8. Texnologiyani takomillashtirish nimani va qanday siljishiga olib keladi?
- a) talab egri chizig'ini yuqoriga va o'ngga.
  - b) talab egri chizig'ini pastga va chapga.
  - c) taklif egri chizig'ini pastga va o'ngga.
  - d) taklif egri chizig'ini yuqoriga va chapga.
9. Faqat past narxlardagina qo'shimcha birlik mahsulot sotib olishga tayyorlikni nima tushuntirib byeradi?
- a) o'rin bosish samarasi.
  - b) cheklangan manfaatning kamayib borish printsipi.

- c) daromad samarasi.
- d) taklif qonuni.

## 4-MAVZU. TALAB VA TAKLIF O'ZGARUVCHANLIGI.

### Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

**1-mashg'ulot.** 4.1. Jadvalda turli narx darajalarida muzqaymoqqa talab hajmi ko'rsatilgan.

4.1. jadval

Bir donasi narxi, so'm	Talab hajmi, ming dona	Xarajatlar (tushum), ming so'm	Talabning narx o'zgaruvchanligi koeffitsienti
2,10	10		
1,80	20		
1,50	30		
1,20	40		
0,90	50		
0,60	60		
0,30	70		


- a) vertikal o'qda narxni, gorizontal o'qda talab hajmini qo'yib, talab egri chizig'ini chizing.
- b) faraz qilamiz, bir dona muzqaymoq narxi 1,2 so'mga teng. Agar narx 30 tiyinga kamaysa, talab hajmi qanday o'zgaradi? Agar har qanday boshqa narx 30 tiyinga kamaysa, javob boshqa bo'ladimi?
- c) har bir narxda muzqaymoqqa ketadigan xarajatlarni aniqlang va jadvalga kiriting.
- d) hamma ko'rsatilgan narxlarda talabning narx o'zgaruvchanligi koeffitsientini hisoblang; topilgan ma'lumotlarni jadvalga kiriting.

**2-mashg'ulot.** 4.2. Jdvalda oziq-ovqat mahsulotlari, vino va pivoga talabning narx o'zgaruvchanligi hamda kesishganlik o'zgaruvchanligi koeffitsentlari keltirilgan; Kesishganlik o'zgaruvchanligi koeffitsenti ( $Ex_u$ ) bir tovar ( $U$ ) narxi o'zgarishida boshqa tovar ( $X$ ) talabi hajmi sezgirligi darajasini ifodalaydi. Bu koeffitsentning qiymati tovarlar o'zaro qanday munosabatda bo'lishiga bog'liq. Ular o'zaro o'rin bosuvchi ( $Ex_u > 0$ ) , o'zaro to'ldiruvchi ( $Ex_u < 0$ ) va neytral ( $Ex_u = 0$ ) bo'lishi mumkin.


4.2. Jadval

Tovarlar	Koeffitsientlar			
	Narx o'zgaruvchan- ligi	Kesishganlik o'zgaruvchanligi quyidagilar talabiga bog'liq ravishda		
		Oziq-ovqat	Vino	Pivo
Oziq-ovqat	0,25	X	0,06	0,01
Vino	1,2	-0,13	x	0,27
Pivo	0,85	0,07	0,41	X

- Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi savollarga javob byering:
- qaysi tovarlar uchun talab o'zgaruvchan, qaysi biri uchun esa noo'zgaruvchan?
  - Oziq-ovqat mahsulotlari narxi o'zgarishi vino va pivo iste'moliga qanday ta'sir ko'rsatadi? Oziq-ovqat mahsulotlari narxi o'zgarishi vino va pivo iste'moliga qanday ta'sir ko'rsatadi? Oziq-ovqat mahsulotlari va jadvaldagi boshqa tovarlar o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida qanday xulosa chiqarish mumkin?
  - 4.3. rasmda vino talabi egri chizig'i ko'rsatilgan. Agar oziq -ovqat mahsulotlariga (1), pivoga (2) narx oshsa, bu egri chiziq qanday yo'nalishlarda o'zgaradi.



4.3 rasm.



4.4 rasm.

**3-mashg'ulot.** 4.4 Rasmda aks ettirilgan DD, dd talab egri chiziqalaridan qaysi biri uzoq muddat davrdagi elektroenergiyaga talabni namoyon etadi? O'z javobingizni asoslab byering.

**4-mashg'ulot.** 4.5 Jadvalda oilaning ikki yil ichidagi xarajatlari strukturasi to'g'risidagi ma'lumotlar byerilgan (A,B,V,G tovarlari narxi o'zgarmaydi). Jadvalni to'ldiring.

4.5 Jadval

Sotib olinadigan tovarlar	Xarid xarajatlari (so'm)		Oila byudjetidagi hissasi		Daromad bo'yicha talab o'zgaruvchanligi	Tovar tavsifi
	1-yil	2-yil	1-yil	2-yil		
Tovar A	30	50				
Tovar B	30	70				
Tovar V	25	20				
Tovar G	15	60				
<b>Jami</b>	100	200	100	100		

**5-mashg'ulot.** Agar A, B, V tovarlarning daromad bo'yicha o'zgaruvchanligi mos ravishda 1.7, -0.8, 0 bo'lsa, unda daromadning kamayishi A, B, V tovarlarning talabi egri chizig'i holatiga qanday ta'sir chizmada chizib ko'rsating.

### Diagnostik tekshirish uchun testlar.

1. Talabning narx o'zgaruvchanligi yuqori bo'ladi:
  - a) qimmatbaho buyumlarga nisbatan birinchi ehtiyojli tovarlarda.
  - b) iste'molchilar bu tovarni o'zlarining eng yuqori manfaatlari uchun ishlatganda.
  - c) iste'molchi uchun tovarning zarurligi qanchalik kam bo'lsa.
  - d) yuqorida aytilganlardan birontasida ham emas.
  
2. Tovar taklifining kamayishi nimani oshirishga olib keladi?
  - a) o'zaro bir-birini to'ldiradigan tovarlarga talabni.
  - b) agar talab narx bo'yicha o'zgaruvchan bo'lsa, sotuvchining umumiy tushumini.
  - c) bu tovarga bo'lgan talabni.
  - d) o'zaro o'rnini bosuvchi tovarlarga talabni.
  
3. Agar tovar narxining 1 % kamayishi talab hajmining 2 % li oshishiga olib kelsa, unda bunday talab:
  - a) noo'zgaruvchan.
  - b) o'zgaruvchanligi 1 ga teng.
  - c) o'zgaruvchan.
  - d) absolyut o'zgaruvchan.
  
4. Agar tovar narxi 1,5 so'mdan 2 so'mgacha oshsa, talab hajmi 1000 birlikdan 900 ga tushsa, unda narx o'zgaruvchanligi koeffitsienti nimaga teng?
  - a) 3,00.
  - b) 2,71.
  - c) 0,37.
  - d) 0,33.
  
5. Quyidagilarning qaysi biri tovar talabining o'zgaruvchanligini tasdiqlamaydi?
  - a) narx o'zgaruvchanligi koeffitsienti birdan kichik.
  - b) agar narx oshsa, sotuvchining umumiy tushumi kamayadi.
  - c) narxning nisbiy o'zgarishidan talab hajmi nisbiy o'zgarishi yuqori.
  - d) agar narx kamaysa, sotuvchining umumiy tushumi oshadi.
  
6. Quyidagilardan qaysi biri tovar talabi noo'zgaruvchanligiga taalluqli emas?
  - a) o'rnini bosuvchi tovarlarning soni ko'p.
  - b) xaridorlar uni sotib olishga o'z daromadining kam qismini sarflaydi.
  - c) bu tovar iste'molchilar uchun birinchi ehtiyojga ega.
  - d) talab hajmi nisbiy o'zgarishini narx nisbiy o'zgarishidan kam.
  
7. Agar 5 % ga narx tushishi taklif hajmini 8 % ga kamaytirsa, unda bunday taklif:
  - a) noo'zgaruvchan.
  - b) o'zgaruvchanligi 1 ga teng.
  - c) o'zgaruvchan.
  - d) absolyut o'zgaruvchan.

8. Agar tovar taklifi noo'zgaruvchan bo'lsa va unga talab kamaysa, unda sotuvchining umumiy tushumi:

- a) o'sadi.
- b) kamayadi.
- c) agar talab o'zgaruvchan bo'lsa, kamayadi.
- d) agar talab noo'zgaruvchan bo'lsa, kamayadi.

9. Taklif o'zgaruvchanligi asosan nimaga bog'liq?

- a) bu tovar o'rnini bosuvchilar sonidan.
- b) sotuvchilarning narx o'zgarishiga moslashishi mumkin bo'lgan vaqt davomligidan.
- c) bu tovar uzoq muddatda ishlatiladigan yoki joriy iste'mol etiladigan buyumlarga ta'luqligidan.
- d) bu tovarni sotib olishga xaridor ajratgan daromad qismidan.

10. Talabning narx o'zgaruvchanligi koeffitsienti teng:

- a) narx pasayishi bo'lingan talab hajmi oshishiga.
- b) umumiy tushum o'zgarishining (% da) talab hajmi oshishining (% da) nisbatiga.
- c) talab hajmi o'zgarishining (% da) narx o'zgarishining (% da) nisbatiga.
- d) yuqoridagilarning hammasi noto'g'ri.

## 5-MAVZU. ALOHIDA MAHSULOT BOZORIDA TALABNING SHAKLLANISHI.

### Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

**1-mashg'ulot.** Talaba har hafta ota-onasidan kunlik xarajatlarga 20 so'm oladi. (ovqatga va dam olishga). quyidagi holatlarning har biri uchun oziq-ovqat mahsulotlarini vertikal o'qda, dam olish xarajatlarini gorizontaal o'qda joylashtirib, talabaning byudjet chizig'ini chizing:

- a) oziq-ovqat mahsulotlari narxi ( $R_G$ ) - bir birligi 50 tiyin, dam olish xarajatlari narxi ( $R_N$ ) - birligi 50 tiyin;
- b)  $R_G = 50$  tiyin,  $R_N = 1$  so'm ;
- c)  $R_G = 1$  so'm,  $R_N = 50$  tiyin ;
- d)  $R_G = 40$  tiyin,  $R_N = 40$  tiyin ;
- e)  $R_G = 50$  tiyin,  $R_N = 50$  tiyin.

**2-mashg'ulot.** 5.1 jadvalda ikki tovarning uch befarqlik tyermalari ko'rsatilgan: oziq-ovqat mahsulotlari (F) va dam olish xizmatlari (N) . Ularning har biri manfaatining turli darajasini ifodalaydi.

- a) uch befarqlik egri chizig'ini chizing.
- b) befarqlik egri chiziqlaridan qaysi biri eng yuqori manfaat darajasini aks ettiradi?
- c) qaysi egri chiziq eng past manfaat darajasini aks ettiradi?
- d) tovarlarning quyidagi kombinatsiyalarini ko'rib chiqing:
  - a) 50 N va 8 F
  - b) 45 N va 4 F
  - c) 12 N va 45 F
  - d) 25 N va 16 F
  - e) N va 11 F


Bu kombinatsiyalarni befarqlik egri chiziqlarida belgilang.

5.1 jadval

1 tyerma (IC1 egri chizig'i)		2 tyerma (IC2 egri chizig'i)		3 tyerma (IC3 egri chizig'i)	
N	F	H	F	H	F
2	40	10	40	12	45
4	34	12	35	14	40
8	26	14	30	16	35
12	21	17	25	18	30
17	16	20	20	21	25
22	12	25	16	27	20
29	9	30	14	33	17
34	7	37	12	38	15
40	5	43	10	44	13
45	4	50	8	50	12

- d) Biz ega bo'lgan ma'lumotlar talaba tanlovining optimal nuqtasini aniqlash uchun etarli mi?

**3-mashg'ulot.** A iste'molchi o'z daromadini audiokassetalar va kiyim-kechak sotib olishga qanday taqsimlashini echishi kerak. 5.2 rasm uning byudjet chizig'ini va befarqlik egri chizig'ini ko'rsatadi. Rasmda quyidagi nuqtalarni ko'rsating:



5.2 rasm.

- o'z ehtiyojlarini maksimallashtiradigan nuqtani.
- faqat audiokasseta sotib oladigan nuqtani.
- bu tovarlarni sotib olishga A hamma daromadini sarflamaydigan tyerma nuqtasini.
- d nuqtadagi kabi qoniqish oladigan, lekin uning byudjeti imkoniyatlaridan chetda bo'lgan nuqtani.
- faqat qiyin sotib oladigan nuqtani.

**4-mashg'ulot.** Talaba oynoma o'qiydi va kassetaga yozilgan musiqani eshitadi. 5.3 jadvalda talabaning oynoma va kassetaning turli miqdorlarini iste'mol qilishdan oladigan manfaati ko'rsatilgan.

Oynomaning narxi 1,5 so'm, kasseta narxi - 7,5 so'm. Talaba odatda 2 kasseta va 10 ta oynoma sotib oladi, deb faraz qilamiz.

5.3-jadval

Miqdor	Oynomalar			Kassetalar		
	Naflik (yutil)	Cheklangan nafik	Mu/p	Naflik (yutil)	Cheklangan naflik	Mu/p
1	60	-	-	360	-	-
2	111			630		
3	156			810		
4	196			945		
5	232			1050		
6	265			1140		
7	295			1215		
8	322			1275		
9	347			1320		
10	371			1350		

- talaba kasseta va oynomalarning bunday miqdorini sotib olishga qancha pul sarflaydi?
- tovarlarning bunday kombinatsiyalarini iste'mol qilishdan u qanday manfaat oladi?
- kasseta va oynomalarning iste'mol qilishdan oladigan cheklangan manfaatini hisoblang.
- kassetalar cheklangan manfaat egri chizig'ini chizmada aks ettiring.

- e) talaba manfaatni maksimallashtiryaptimi, yo'qmi? Buni aniqlash mumkinmi?
- f) agar u butun byudjetini kassetalar sotib olishga sarflasa, qanday manfaat oladi?
- g) har bir tovar uchun cheklangan manfaatning narxga nisbatini aniqlang.
- h) ikki tovarning qanday kombinatsiyasida manfaat maksimal bo'ladi?

### **Diagnostik tekshirish uchun testlar.**

1. Quyida yozilganlarning qaysi biri noto'g'ri?

- a) befarqlik egri chizig'idagi har qanday nuqta ikki tovarning turli kombinatsiyalarini ko'rsatadi.
- b) byudjet chizig'idan har qanday nuqta ikki tovarning turli kombinatsiyalarini ko'rsatadi.
- c) befarqlik egri chizig'idagi har qanday nuqta ehtiyojlarning bir xil qondirilishini ko'rsatadi.
- d) befarqlik egri chizig'idagi har qanday nuqta pul daromadining bir xil darajasini ko'rsatadi.

2. Iste'molchi daromadining oshishi grafik ko'rinishini qanday o'zgartiradi?

- a) byudjet chizig'ining qiyaligi o'zgaradi.
- b) byudjet chizig'i o'ngga parallel siljiydi.
- c) byudjet chizig'i chapga parallel siljiydi.
- d) byudjet chizig'i qiyaligi oshadi.

3. Daromad samarasi quyidagi holatda namoyon bo'ladi:

- a) agar odamlar daromadi tushsa, ular bu mahsulotni kam xarid qiladilar.
- b) tovarlar arzonlashuvi shunga olib keladiki, iste'molchi boshqa tovarlar xarid qilish hajmini kamaytirmagan holda bu tovarni ko'proq sotib olishi mumkin.
- c) ayrim tovarlar sotib olish hajmi daromad oshgan sari kamayib boradi.
- d) hamma yuqorida aytilgan holatlarda.

4. Umumiy naflik miqdorlarining quyidagi to'plamlaridan qaysi biri cheklangan naflikning kamayish qonunini aks ettiradi?

- a) 200, 300, 400, 500.
- b) 200, 450, 750, 1100.
- c) 200, 400, 1600, 9600.
- d) 200, 250, 270, 280.

5. Cheklangan naflik miqdorlarining quyidagi to'plamlaridan qaysi biri cheklangan naflikning kamayish qonunini aks ettiradi?

- a) 200, 150, 100, 500.
- b) 200, 300, 400, 500.
- c) 200, 200, 200, 200.
- d) 200, 250, 270, 280.

6. X tovar narxi 1,5 so'm. U tovar narxi 1 so'm. Agar iste'molchi U tovarning cheklangan nafiligini 30 yutil baholasa va X va U tovarlarining sotib olishdan olinadigan qoniqishni maksimallashtirishni xohlasa, unda u X tovarning cheklangan nafiligini quyidagicha qabul qilishi kerak:

- a) 15 yutil.
- b) 20 yutil.
- c) 30 yutil.
- d) 40 yutil.

7. Alohida iste'molchi uchun befarqlik egri chizig'i joylashishi va qiyaligi quyidagicha tushuntiriladi:

- a) uning daromad miqdori va mahsulot xushlashi bilan.
- b) sotib olinadigan tovarlar narxi bilan.
- c) faqat uning mahsulot xushlashi bilan.
- d) sotib olinadigan tovarlar narxi va daromad miqdori bilan.

8. Iste'molchi 8 so'm daromadga ega deb faraz qilamiz. A tovar narxi 1 so'm, V tovar narxi 0,5 so'm. quyidagi kombinatsiyalarning qaysi biri byudjet chizig'ida joylashadi?

- a) 8 A va 1 V.
- b) 7 A va 1 V.
- c) 6 A va 6 V.
- d) 5 A va 6 V.

9. Cheklangan naflikning kamayish qonuni nimani bildiradi?

- a) cheklangan nafliklarning narxlarga nisbati hamma tovarlar uchun bir xil.
- b) sotib olingan mahsulotlar miqdori oshib borgan sari har bir qo'shimcha birlik mahsulot keltiradigan naflik kamayib boradi.
- c) iste'molchi daromadi oshgan sari xarid qilinadigan tovarlar nafligi so'nib boradi.
- d) birorta ham javob to'g'ri emas.

10. Umumiy naflik oshadi, qachonki cheklangan naflik:

- a) kamaysa.
- b) oshsa.
- c) sust sur'atda oshsa.
- d) oshsa yoki kamaysa, lekin musbat miqdor bo'lsa.

## 6- MAVZU. FIRMA VA UNING BOZOR IQTISODIDAGI ROLI.

### Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

**1-mashg'ulot.** Qandolat ishlab chiqaradigan firma uch texnologiyadan birini tanlab oladi. Ularning har biri ishlatiladigan resurslar (Mehnat va kapital) ning turli miqdorlari bilan farq qiladi. qo'llanadigan texnologiyalar to'g'risidagi ma'lumot 6.1 jadvalda ko'rsatilgan ( L - Mehnat; K-kapital)

6.1 Jadval

Ishlab chiqarish hajmi	Texnologiyalar					
	A		B		C	
	L	K	L	K	L	K
1	9	2	6	4	4	6
2	19	3	10	8	8	10
3	29	4	14	12	12	14
4	41	5	18	16	16	19
5	59	6	24	22	20	25
6	85	7	33	29	24	32
7	120	8	45	38	29	40

Faraz qilamiz: mehnat birligi narxi 200 so'm, kapital birligi narxi -400 so'm.

- mahsulot ishlab chiqarishning har bir darajasida umumiy xarajatlarni aniqlang.
- mahsulot ishlab chiqarishning har bir darajasida firma qanday texnologiyani tanlashini aniqlang.
- faraz qilamiz, mehnat birligi narxi 300 so'mgacha oshdi, kapital narxi esa avvalgicha qoldi. Bunday narx o'zgarishi firma tomonidan texnologiyani tanlashga ta'sir etadimi?
- mehnatga haq to'lash xarajatlarining yangi darajasida qaysi texnologiya tanlanishini aniqlang.

**2-mashg'ulot.** 6.2 jadvalda firmaning uzoq muddatli davrdagi umumiy xarajatlari byerilgan.

6.2 Jadval

Ishlab chiqarish hajmi (haftasiga dona)	Xarajatar (so'm)		
	Umumiy	O'rtacha	Cheklangan
0	0		
1	32		
2	48		
3	82		
4	140		
5	228		
6	352		

- a) uzoq muddatli o'rtacha xarajatlar va uzoq muddatli cheklangan xarajatlar miqdorini aniqlang.
- b) uzoq muddatli o'rtacha va cheklangan xarajatlar egri chizig'ini chizing.
- c) ishlab chiqarishning qanday hajmida o'rtacha xarajatlar minimal bo'ladi?
- d) ishlab chiqarishning qanday hajmida cheklangan xarajatlar uzoq muddatli o'rtacha xarajatlarga teng bo'ladi?

**3-mashg'ulot.** 2 mashg'ulotda chizgan egri chiziqlaringiz asosida quyidagi savolarga javob byering:

- a) mahsulot ishlab chiqarishning qanday hajmlarida firma ishlab chiqarishi ko'lamini oshirishdan musbat samara oladi?
- b) bu firmada ishlab chiqarishning minimal samarasi ko'lamini qanday bo'ladi?
- c) faraz qilamiz, siz LAC egri chizig'idagi alohida nuqtada ishlab chiqarish ko'lamidan olinadigan qaytimni hisoblashingiz mumkin. LAC minimal bo'lgan nuqta ishlab chiqarishning qanday hajmini ko'rsatadi?

**4 mashg'ulot.** Firma 45 so'm miqdorida doimiy xarajatlarga ega. 6.3 jadvalda qisqa mudatdagi o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar byerilgan.

6.3 jadval.

Ishlab chiqarish hajmi (dona, hafta)	SAVC
1	17
2	15
3	14
4	15
5	19
6	29

- a) o'rtacha doimiy, o'rtacha o'zgaruvchan, o'rtacha umumiy va chekli xarajatlarni aniqlang.
- b) SAVC, SATC va SMC egri chiziqlarini chizing; SMC egri chizig'i boshqa ikki egri chiziqdan o'tadimi, tekshirib ko'ring.
- c) firmada ishlab chiqarish hajmi 5 tadan 6 taga oshdi, qisqa muddatli cheklangan xarajatlar o'sishi kerak. Nima uchun bunday bo'ladi? Bunda mehnatning cheklangan mahsuloti qanday rol o'ynaydi?

**5-mashg'ulot.** qisqa muddatli davrda firma foydalanayotgan mehnat resurslarini o'zgartirishi mumkin, Lekin ishlatiladigan kapital miqdoriga ta'sir etib bilmaydi. 6.4 jadvalda qo'llanadigan mehnat hajmlari o'zgarishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish qanday o'zgarishi ko'rsatilgan.

6.4 jadval.

Mehnat sarfari (kishi,hafta)	Maxsulot hajmi (birl.,hafta)	MPL	APL
0	0		
1	35		
2	80		
3	122		
4	156		
5	177		
6	180		

- a) mehnatning cheklangan mahsulotini (MPL) va mehnatning o'rtacha mahsulotini (APL) aniqlang.
- b) MPL va APL egri chiziqlarini chizing.
- c) MPL egri chizig'i APL ni mehnatdan foydalanishning qanday darajasida kesishishini aniqlang.
- d) MPL egri chizig'i holatiga kapital xarajatlaridagi o'zgarishlar ta'sir etadimi?

### **Diagnostik tekshirish uchun testlar.**

1. Qisqa muddatli davrdagi cheklangan xarajatlarga tegishli bo'lgan tasdiqlarning qaysi biri noto'g'ri?

- a) o'rtacha xarajatlar eng kam miqdorga ega bo'lganda, cheklangan xarajatlar o'rtacha xarajatlarga teng.
- b) o'rtacha xarajatlar kamayganda, cheklangan xarajatlar o'rtacha xarajatlardan kam bo'ladi.
- c) mahsulot ishlab chiqarish hajmi optimal miqdordan ko'p bo'lganda, cheklangan xarajatlar o'rtacha xarajatlardan yuqori.
- d) cheklangan xarajatlar miqdoriga ishlab chiqarish omillari o'zgarishi ta'sir ko'rsatmaydi.

2. Qisqa muddatli davrda foydasini maksimallashtiradigan firma ishlab chiqarishni to'xtatadi, agar:

- a) narx eng kam o'rtacha umumiy xarajatlardan kam bo'lsa.
- b) foyda o'rtacha tarmoqdagidan kam bo'lsa.
- c) umumiy daromad umumiy xarajatlardan kam bo'lsa.
- d) umumiy daromad umumiy o'zgaruvchan xarajatlardan kam bo'lsa.

3. Firmaning doimiy xarajatlari, bu:

- a) sotib olingan davrdagi narxlar bo'yicha resurslar xarajati.
- b) noaniq xarajatlar.
- c) hatto mahsulot ishlab chiqarmasa ham firma etishi kerak bo'lgan xarajatlar.
- d) javoblarning birontasi to'g'ri emas.

4. Ishlab chiqarish omillarini qo'llash jami imkoni bor variantlari va mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik quyidagi orqali ifodalanadi:

- a) ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i.
- b) taklif o'zgaruvchanligi.
- c) ishlab chiqarish funktsiyasi.
- d) umumiy mahsulot ishlab chiqarish egri chizig'i.

5. Quyidagi egri chiziqlardan qaysi biri hech qachon V – ko'rinishdagi shaklni egallamaydi:

- a) AVC.
- b) MC.
- c) AFC.
- d) ATC.

6. Agar AVC ishlab chiqarish hajmi oshgan sayin qisqarsa, unda:
- MC ham qisqarishi kerak.
  - TFC ham qisqarishi kerak.
  - TC ham qisqarishi kerak.
  - MC AVC ga nisbatan past bo'lishi kerak.
7. Xarajatlar iqtisodiy ma'noda:
- aniq va noaniq xarajatlarni, shu jumladan normal foydani o'z ichiga oladi.
  - faqat aniq xarajatlarni o'z ichiga oladi.
  - faqat noaniq xarajatlarni o'z ichiga oladi.
  - ham aniq, ham noaniq xarajatlarni o'z ichiga olmaydi.
8. Quyidagilarning qaysi biri to'g'ri:
- buxgalyeriya xarajatlari q iqtisodiy xarajatlar q aniq xarajatlar.
  - iqtisodiy foyda – noaniq xarajatlar q iqtisodiy foyda.
  - buxgalyeriya foydasi – noaniq xarajatlar q iqtisodiy foyda .
  - iqtisodiy foyda – noaniq xarajatlar q buxgalyeriya foydasi.
9. Uzoq muddatli davrda:
- hamma xarajatlar o'zgaruvchan.
  - hamma xarajatlar doimiy.
  - cheklangan xarajatlar o'zgaruvchan xarajatlarga nisbatan tez o'sadi.
  - hamma xarajatlar noaniq xarajatlar.
10. Cheklangan mahsulot qisqarishni boshlaydi, agar qo'shimcha:
- 6 – ishchi yollansa.
  - 4 – ishchi yollansa.
  - 3 – ishchi yollansa.
  - 2 – ishchi yollansa.

## 7 - MAVZU. TURLI BOZOR STRUKTURALARIDA ISHLAB CHIQUARISH VA NARX SHAKLLANISHI.


### Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

**1-mashg'ulot.** 7.1 rasmda raqobatli tarmoqda faoliyat ko'rsatadigan firma xarajatlari egri chizig'i ko'rsatilgan. OR-joriy bozor narxi.

- firma foydasi maksimal bo'lgan ishlab chiqarish darajasini grafikda ko'rsating.
- narx va ishlab chiqarishning shu darajalarida firma foydasi hajmini ko'rsatadigan maydonni grafikda belgilang.
- bu tarmoq muvozanatda deb faraz qilamiz. Bu qisqa muddatli 7.2 rasm. Raqobatchi firma muvozanatmi yoki uzoq muddatli xarajatlari egri chizig'i muvozanatmi? O'z javobingizni asoslab byering.
- tarmoqda chiqariladigan tovarlarga talab kamayishi bu firmaga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?

**2-mashg'ulot.** 7.3 rasmda firmaning umumiy xarajatlari va umumiy daromadi egri chiziqlari ko'rsatilgan. Grafikni e'tibor bilan o'rganib, savollarga javob byering.

- bu grafik qanday bozor strukturasi mos? Nima uchun?
- qaysi davrni aks ettiradi: qisqa muddatli yoki uzoq muddatli.
- firma ishlab chiqaradigan tovar narxi qanday?
- firma doimiy xarajatlari miqdori qancha?



7.3-rasm. TS va TR egri chiziqlari.

- Ishlab chiqarishning qanday hajmida firma iqtisodiy foydasi nolga teng?
- Firma ishlab chiqarishning qanday hajmida maksimal foyda oladi?

**3-mashg'ulot.** Quyida raqobatchi firmaning qisqa muddatli davrdagi umumiy xarajatlari funktsiyasi byerilgan.

Mahsulot ishlab chiqarish (birl.)	0	1	2	3	4	5
Umumiy xarajatlar (so'm)	10	12	16	22	30	40

- a) agar tovarning bozoriy narxi (1) - 3 so'm, (2) - 5 so'm, (3) - 7 so'm, (4) - 9 so'm bo'lganda firma mahsulot ishlab chiqarishning qanday hajmini tanlaydi?  
 b) a) topshiriqdagi tovar narxlarida firma qanday foyda oladi?  
 c) agar tarmoq 1000 firmadan iborat bo'lsa va ularning har biri yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar funktsiyasiga ega bo'lsa, unda bozor taklifi funktsiyasi quyidagicha ifodalanadi:


Narx (so'm)	3	5	7	9
Taklif hajmi (birl.)	-	-	-	-

- d) agar bozor talabi funktsiyasi quyida ko'rsatilganday bo'lsa, unda mahsulotning muvozanat narxi qanday bo'ladi?

Narx (so'm)	3	5	7	9
Talab hajmi (birl.)	3000	2000	1500	1000

- e) har bir firma mahsulot ishlab chiqarish hajmi miqdori qancha?  
 j) har qaysi firma qancha foyda oladi?  
 k) uzoq muddatli davrda firma nima qiladi: tarmoqqa kiradimi yoki undan chiqadimi?

**4-mashg'ulot.** 7.4- rasmda raqobatli tarmoqda faoliyat ko'rsatadigan ikki turli firmaning daromad va xarajatlari egri chiziq-lari ko'rsatilgan. Bu axborotdan foydalanib, quyidagi tasdiqlar to'g'ri (T) yoki noto'g'ri (N) ekanligini aniqlang.



7.4- rasm. Xarajat va daromadlar egri chizig'i.

- a) ikkala firma ham qisqa muddatli davrda ishlayapti.
- b) firma II ZPab maydonga teng ravishda iqtisodiy foyda ko'radi.
- c) firma I oladigan umumiy daromad OZ aq maydonga teng .
- d) firma umumiy o'zgaruvchan xarajatlari OW cq maydonga teng.
- e) firma I mahsulotiga talab narx bo'yicha umuman noo'zgaruvchan.
- f) firma II mahsulotiga talab narx bo'yicha absolyut o'zgaruvchan.

**5-mashg'ulot.** Firma traktorlar ishlab chiqarishni to'la monopollashtirgan deb, faraz qilamiz: quyidagi axborot firma holatini aks ettiradi:

$$\text{Cheklangan daromad} = 1000 - 20 \cdot Q$$

$$\text{Umumiy daromad} = 1000 \cdot Q - 10 \cdot Q^2$$

$$\text{Cheklangan xarajatlar} = 100 + 10 \cdot Q$$

bunda: Q - traktorlar ishlab chiqarish hajmi,

P- bir traktorning narxi (so'm)

Qancha traktor va qanday narxda sotiladi, agar:

- a) firma oddiy monopoliya sifatida faoliyat ko'rsatsa?
- b) firma mukammal raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatsa?

### **Diagnostik tekshirish uchun testlar.**

1. Quyidagi tasdiqlardan qaysi biri monopolistik raqobat sharoitida bajarilmaydi:
  - a) firma cheklangan daromadlari cheklangan xarajatlariga teng bo'lganda, firma muvozanat holatda.
  - b) firma mahsuloti talabi manfiy qiylikka ega.
  - c) o'rtacha va cheklangan xarajatlar egri chiziqlari B- ko'rinishga ega.
  - d) to'g'ri javob yo'q.
  
2. Qisqa muddatli davrda foydasini maksimallashtiradigan firma ishlab chiqarishni davom ettirmaydi, agar:
  - a) eng kam o'rtacha xarajatlardan maxsulot narxi past bo'lsa.
  - b) o'rtacha doimiy xarajatlar mahsulot narxidan yuqori.
  - c) o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar eng kam miqdoridan past bo'lsa.
  - d) umumiy daromad firma umumiy xarajatlarini qoplay bilmasa.
  
3. Agar cheklangan xarajatlar foydani maksimallashtiradigan ishlab chiqarish hajmida o'rtacha xarajatlardan yuqori, bo'lsa, unda firma:
  - a) musbat foyda oladi.
  - b) o'rtacha xarajatlar egri chizig'i minimumidan o'ngroqda joylashgan nuqtaga mos ishlab chiqarish hajmini tanlaydi.
  - c) ishlab chiqarishni to'xtatmaydi.
  - d) yuqoridagi hamma javoblar to'g'ri.
  
4. Qisqa muddatda raqobatchi firma taklifi egri chizig'i, bu:
  - a) cheklangan xarajatlar egri chizig'i.

- b) tovar narxi egri chizig'i.
- c) o'rtacha xarajatlar egri chizig'ining o'sayotgan qismi.
- d) O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar egri chizig'idan yuqorida joylashgan cheklangan xarajatlar egri chizig'ining bir qismi.

5. Raqobatchi firma mahsuloti talabi egri chizig'i:

- a) manfiy qiyalikka ega.
- b) ma'lum narx darajasidagi gorizontal chiziq.
- c) ma'lum ishlab chiqarish hajmidagi vyertikal chiziq.
- d) musbat qiyalikka ega.

6. Agar mahsulot narxi uni ishlab chiqarishning o'rtacha xarajatlarini qoplash uchun etarli bo'lmasa, unda firma:

- a) tezda ishlab chiqarishni to'xtatishi kerak.
- b)  $P=MC$  (agar  $P>AVC$ ) darajagacha tovar ishlab chiqarishni davom ettiradi.
- c) yangi texnologiyani joriy etadi.
- d) hamma doimiy xarajatlarni narx qoplamaguncha ishlab chiqarishni davom ettiradi.

7. Iqtisodiy foyda:

- a) uzoq muddatda raqobatli bozorda bo'lishi mumkin emas.
- b) normal buxgaltyeriya foydasiga ekvivalent.
- c) umumiy xarajatlar umumiy daromadlardan past bo'lganda hamma vaqt namoyon bo'ladi.
- d) cheklangan daromad cheklangan xarajatlardan yuqori bo'lganda hamma vaqt namoyon bo'ladi.

8. Tarmoqda 1000ta firma faoliyat ko'rsatadi. Hamma firmada oyiga 5 birlik mahsulot ishlab chiqarilganda cheklangan xarajatlar 2 so'm, 6 birlik ishlab chiqarilganda 3 so'm, 7 birlikda 5 so'mni tashkil etadi. Agar bir birlik mahsulot narxi 3 so'm bo'lsa, unda oylik mahsulot ishlab chiqarish tarmoqda:

- A) 5000 birlik.
- B) 6000 birlik.
- V) 7000 birlik.
- G) 7000 birlikdan ko'p.

9. Agar bozor narxi oldingi misolda 6 so'mgacha oshsa, unda oylik mahsulot ishlab chiqarish tarmoqda:


- a) 5000 birlik.
- b) 6000 birlik.
- c) 7000 birlik.
- d) 7000 birlikdan kam emas.

## 8–MAVZU. IQTISODIY RESURLAR VA ULARNING HARAKATI

### Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

**1-mashg'ulot.** 8.1- rasmda individ tomonidan mehnat vaqti va dam olish vaqti tanlovini aks ettiruvchi befarqlik egri chizig'i ko'rsatilgan. Faraz qilamiz, individ ishlasa ham, ishlamasa ham kuniga 20 so'm daromadga ega.

a) grafikda ish haqi stavkasi 2,5 so'm soatiga bo'lgan sharoitdagi byudjet chizig'ini chizing.




8.1. rasm. Individ tomonidan mehnat taklifi.

b) individ kuniga necha soat ishlashga qaror qiladi?

c) ish haqi stavkasi 3,33 so'mgacha oshdi. Grafikda bu byudjet chizig'i holatiga qanday ta'sir etishini ko'rsating.

d) endi individ kuniga necha soat ishlashga qaror qiladi?

**2-mashg'ulot.** 8.2. rasmda bir tarmoqning mashinistkalar mehnatiga talabi egri chizig'i va bu tarmoq uchun mehnat taklifi egri chiziqlari ko'rsatilgan.



8.2.rasm. Mehnat bozorida muvozanat.

- boshlang'ich mehnatga talab egri chizig'i-D taklif egri chizig'i- S Ish haqi muvozanat stavkasi va mashinistkalarining muvozanat bandligi darajasi qanday?
- faraz qilamiz, tarmoq o'z mahsulotiga talabning kamayib borishini kuzatayapti. Bu holda tarmoqda mashinistkalarining muvozanat ish haqi va muvozanat bandlik darajasi qanday o'zgaradi?
- avvalgi D va S egri chiziqlariga qaytaymiz. Faraz qilamiz, boshqa tarmoqlarida mashinistkalar mehnatiga talab ochilishi u yerda ularning ish haqining ochilishiga olib keldi. Bunday holat bu tarmoqdagi mashinistkalarining muvozanat ish haqi stavkasi va bandlik darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- avvalgi D va S egri chiziqlariga qaytamiz. Faraz qilamiz, tarmoqda mashinistkalar mehnatiga talab tushadi (D egri chizig'i D ga siljiydi), Lekin kasaba uyushmasi ish haqining avvalgi darajasida qolishini talab etib, uning kamayishiga qarshi chiqadi. Bu tarmoqdagi mashinistkalar bandligi darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

**3-mashg'ulot.** 8.3. jadvalda alohida firma uchun ko'rinishdagi cheklangan mahsulot miqdorlari to'g'risida ma'lumotlar (MRP) berilgan.

8.3. jadval

Mehnat birligi miqdori	MRP <sub>1</sub> (ming so'm)
1	15
2	14
3	13
4	12
5	11
6	10
7	9
8	8

8.4. jadval

Mehnatga talab hajmi (kishi)	Ish haqi stavkasi (ming so'm)	Mehnat taklifi hajmi (kishi)
--	15	850
--	14	800
--	13	750
--	12	700
--	11	650
--	10	600
--	9	550
--	8	500

- faraz qilamiz, shu konkret mehnatning xuddi shunday MRP miqdori 100 firmada bor. Bu mehnat turiga umumiy bozor talabi hajmi miqdorini aniqlang. Topilgan ma'lumotlarini 8.3 jadvalga kiriting.
- 8.4 jadval ma'lumotlaridan foydalanib. Muvozanat ish haqi stavkasini aniqlang.
- yollangan ishchilarning umumiy sonini hisoblang.
- alohida firma uchun mehnatga haq to'lashning cheklangan xarajatlarini, yollangan ishchilar sonini, ish haqi miqdorini aniqlang.
- agar minimal ish haqi 12 ming so'm darajasida o'rnatilsa, yollangan ishchilar umumiy soni qanday o'zgarishini aniqlang.

**4-mashg'ulot.** 8.5. jadvalda mehnat ( L ) va kapitalning (K) cheklangan mahsuloti (MR) va uning pul ko'rinishidan miqdori to'g'risida mashg'ulotlar keltirilgan. Ikkala resurs ham o'zgaruvchan va raqobatli bozorda sotib olinadi. Mehnat narxi 2 ming so'm, kapital narxi 3 ming so'm.

8.5.Jadval

Ishlatiladigan mehnat hajmi	$MR_1$	$MRP_1$ (m.so' m)	Ishlatiladigan kapital hajmi	$MP_k$	$MRP_k$
1	10	5,0	1	21	10,5
2	8	4,0	2	18	9,0
3	6	3,0	3	15	7,5
4	5	2,5	4	12	6,0
5	4	2,0	5	9	4,5
6	3	1,5	6	6	3,0
7	2	1,0	7	3	1,5

- minimal xarajatlar bilan 64 birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun firma qancha birlik mehnat va kapital ishlatadi? 99 birlik mahsulot uchun-chi?
- maksimal foyda olish uchun firma qancha birlik mehnat va kapital ishlatadi?
- nima uchun firma maksimal foyda ola turib, xarajatlarini minimumlashtiradi?
- firma o'z mahsulotini sotadigan bozor mukammal raqobatlimi? qanday narxda firma o'z mahsulotini sotadi?
- firma maksimal foyda olish sharoitida, uning umumiy mahsuloti hajmini (TP), umumiy tushushni (TR) umumiy xarajatlarini (TC) va foyda miqdorini aniqlang.

**5-mashg'ulot.** Talaba 100 ming so'mga ega va uni jamg'arishni yoki ishlatish to'g'risida qaror qabul qilish kerak. Agar u bankka pulni qo'ysa, unda bir yildan so'ng u 112 ming so'm oladi. Inflyatsiya yiliga 14% tashkil etadi.

- nominal protsent stavkasi qanday?
- real protsent stavkasi qanday?
- siz studentga nima taklif qilgan bo'lardingiz.

protsentning nominal stavkasi o'zgarmagan hamda inflyatsiya sur'ati ( $R_t - t$  yildagi yillik daromad;  $i$  - protsent stavkasi)

### Diagnostik tekshirish uchun testlar.

- Firma minimal xarajatlar darajasiga etadi, qachonki:
  - barcha ishlab chiqarish omillarining narxi bir xil bo'lsa.
  - hamma ishlab chiqarish omillarining cheklangan mahsulotlari bir xil.
  - ishlab chiqarish omillarining cheklangan mahsuloti ularning narxiga teng.
  - yuqoridagi javoblarning hammasi noto'g'ri.

2. Ishlab chiqarish omili cheklangan mahsulotining puldagi ko'rinishi
  - a) oxirgi mahsulot birligining sotuv narxini bildiradi.
  - b) ishlab chiqarish omilining qo'shimcha biriligidan foydalanganda umumiy tushum miqdorining o'zgarishiga teng.
  - c) ishlab chiqarish omilining qo'shimcha birligidan foydalangan ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga teng.
  - d) mukammal raqobat sharoitida aniqlab bo'lmaydi.
  
3. Real ish haqi darajasidagi o'zgarishlarni nominal ish haqi o'zgarishlari bilan nimani taqqoslash orqali aniqlash mumkin:
  - a) tovar va xizmatlarga narx darajasi bilan.
  - b) foyda normasi bilan.
  - c) solik stavkalari bilan.
  - d) ish vaqti davomiyligi bilan.
  
4. Agar sizning firmangiz narxni pasaytirsangiz, raqobatchilar ham shunga mos holda narxlarni tushirishadi, ammo siz narxni ko'tarsangiz, birorta ham firma sizning yo'lingizdan bormaydi. Bu degani, sizning firmangiz ...
  - a) raqobat bilan «hayot- mamot» yuzasidan to'qnashadi.
  - b) «Singan» talab egri chizig'iga ega bo'ladi.
  - c) oligopolistik bozorda narx etakchisi bo'ladi.
  - d) tarmoqda ko'proq samaraliroq hisoblanadi.
  
5. Kartel qatnashchisi o'z foydasini oshirgan bo'lardi, agar:
  - a) o'z tovarlarini kartelning boshqa qatnashchilariga nisbatan arzonroq narxda sotganda.
  - b) kartelning boshqa qatnashchilariga nisbatan yuqoriroq narx belgilaganda.
  - c) narxni ko'tarish uchun o'rnatilgan kvotaga nisbatan past mahsulot ishlab chiqarishni belgilaganda.
  - d) har doim kartelning narxni oshirishini talab etib turganda.
  
6. Oligopoliya, bu — shunday bozor strukturasi, unda:
  - a) qardosh mahsulot ishlab chiqaradigan juda ko'p raqobatlashadigan firmalar faoliyat ko'rsatadi.
  - b) differentsiallangan mahsulot ishlab chiqaradigan ko'p raqobatlashadigan firmalar faoliyat ko'rsatadi.
  - c) ko'p sonli raqobatlashadigan firmalar faoliyat ko'rsatadi.
  - d) faqat birta yirik firma faoliyat ko'rsatadi.

7. Raqobatchi firma foydasini maksimallashtirishga harakat qilib, qo'shimcha ishchilarni yollashi kerak, agarda:

- a) umumiy tushum umumiy xarajatlardan kam bo'lsa.
- b) pul ko'rinishidagi mehnatning cheklangan mahsuloti ish haqi stavkasidan past bo'lsa.
- c) pul ko'rinishidagi mehnatning cheklangan mahsuloti miqdori pasaysa.
- d) pul ko'rinishidagi mehnatning cheklangan mahsuloti miqdori ish haqi stavkasidan yuqori bo'lsa.

8. Faraz qilaylik, mahsulot ishlab chiqarishda mehnat (L) va kapital (K) ishlatiladi.

$MP_L=2$ ;  $MP_K=5$ ;  $P_L=1$  so'm,  $R_K=20$  so'm;  $MR=3$  so'm

Maksimal foyda olish uchun firma ishlatishi kerak:

- a) ko'proq ham mehnat, ham kapitalni.
- b) kamroq ham mehnat, ham kapitalni.
- c) mehnatni ko'proq, kapitalni kamroq.
- d) kapitalni ko'proq, mehnatni kamroq.

9. Resursga talab nimadan bog'liq?

- a) resurs yordamida ishlab chiqariladigan mahsulot narxidan.
- b) o'rinbosuvchi resurslar narxidan.
- c) o'zaro to'ldiruvchi resurslar narxidan.
- d) hamma javoblar to'g'ri.

10. Monopolist-firma qo'shimcha ishchilarni, toki quyidagi tenglik yuzaga kelmaguncha ishga yollaydi:

- a)  $P \times MP_L = W$ .
- b)  $P : W = MP_L$ .
- c)  $MR \times MP_L = W$ .
- d)  $MR : MP_L = W$ .

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlar yo‘lida”. T., 1995 y.
2. I.Karimov “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilsh, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir” Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti – MATBAA ijodiy uyi, 2005
3. Gu‘lomov S.S., Alimov.R.X., Salimov B.T., Hodiyeu B.YU., Ishnazarov.A.I Mikroiqtisodiyot. Toshkent, «Sharq» nashriyoti – MATBAA AK bosh tahririyati, 2001
4. Hamdamov.Q.S Mikroiqtisod. Toshkent, 2001
5. Nizomov A.B, Namazova N.J., Amonov O`. N Mikroiqdisod. Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003
6. “Doklad o chelovecheskom razvitii”. “O‘zbekiston”. T., 1997 g.
7. E.Dj.Dolan. “Mikroekonomika”. Sankt-Peterburg, 1994 g.
8. K.R.Makkonell, S.L.Bryu “Ekonomiks”, 1,2 t. Tallin, 1993 g.
9. Mikro-makroekonomika. Praktikum. Pod redaksiey IO.A.Ogibina. Sankt-Peterburg, 1994 g.
- 10.A.D.Smirnov, V.F.Maksimova. “Rinochnaya ekonomika”. 1997 g.
- 11.Rinochnaya ekonomika. Uchebnik. Assosiasiya ekonomicheskix VUZov. Red.koll. V.I.Soldatkin, M., 1997 g.
- 12.R.Pindayk va bosq. Mikroiqtisod. Ingliz tilidan tarjima. Toshkent 2002





